

XIV – XVI ASRLARDA TEMURIYLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA FAN VA MADANIYATNING ZAMONAVIY SIVILIZATSIYA RIVOJIDAGI ROLI VA AHAMIYATI

Soatova Rayxona Sadriddin qizi

*Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika va san'at fakulteti
Pedagogika yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XIV-XVI asrlarda Movarounnahr va Xurosonda fan va madaniyatning rivojlanishi, shu davrlarda yashab ijod qilgan olimlarning qilgan ishlari, asarlari va ilm-fan taraqqiyoti haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, madaniyat, ijod namunalari, fan*

Bugungi globallashuv zamonidagi kabi XIV-XVI asrlarda Movarounnahr, Xurosonda ham ilm-fanga, taraqqiyotga e'tibor anchayin kuchli bo'lgan. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, shu davrlar oralig'ida Movarounnahr va Xurosonda temuriylar sulolasi hukmronlik qilardi. Bu davrlardagi pedagogik fikrlar, ilm-fan rivoji, turli qo'lyozmalar, kitoblarni o'rganish orqali tariximizning yorqin zarvaraqlarini kashf etdik. Tarixiy meroslarni o'rganish, asrab avaylashimiz haqida shuningdek, birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov shunday degan edilar: **“Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimiy toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan mingminglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir”¹.**

Aynan shu davrda ta'lim-tarbiya bilan birgalikda iqtisodiyot, siyosat ham anchayin rivoj topdi. Bu davr tarixda **“Ikkinchi renessans”** deb ham ataladi. Yurt rivojlanishi, dovruq qozonishi uchun, avvalo, mamlakat tinch-osoyshta bo'lishi zarur. Bu tinchlikni shu davrda temuriylar sulolasi asoschisi Amir Temur yaratib bera oldi. Temur o'zining bunyodkor g'oyalari asosida turli o'lkalardan olimlar, shoirlar, me'morlar, hunarmandlarni o'z yurtiga keltirdi. Movarounnahr, Xurosonning turli go'shalarida kutubxona, madrasa, masjidlar qurdirdi. Adolatli shoh sharofati bilan mamlakat dovrug'i dunyoga tanildi.

¹ . I. Karimov. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2008.

Amir Temurdan so'ng boshqa temuriy shahzodalar ham mamlakatni isloh qilishga bel bog'ladilar. Bular orasida, ayniqsa, Mirzo Ulug'bekning xizmatlari beqiyosdir. Uning zamoniga kelib, ayniqsa, aniq va tabiiy fanlar rivoj topdi. Xalqning ma'naviyati, ilmiy salohiyati yuksak bo'lishini istagan shoh va olim Samarqand, Buxoro, G'ijduvonda madrasalar qurdirdi. Buxorodagi madrasa darvozasiga **“Bilim olish har bir musulmon ayol va erkakning burchidir”**², deb yozdirib, barcha xalq vakillarini bilim olishga chaqirgan.

Ma'lumotlarga qaraganda, o'sha davrlarda madrasa oliy ma'lumot beruvchi muassasa hisoblangan bo'lib, bu yerda fiqh, mantiq, tibbiyot, riyoziyot (matematika), handasa (geometriya), jug'rofiya (geografiya), she'riyat, falakiyot kabi fanlar o'qitilgan. Ulug'bek tomonidan asos solingan Samarqand akademiyasida ushbu fanlardan talabalarga Qozizoda Rumiy, Shamsiddin Muhammad Xavofiy, G'iyosiddin Jamshid Koshoniy, Ali Qushchi va Mirzo Ulug'beklarning o'zi ham dars bergan.

Bundan tashqari, temuriylar davrida noyob kitoblarga boy ulkan kutubxonalar tashkil etilgan. Ulug' va ko'hna shahar bo'lmish Samarqandda Amir Temur va Mirzo Ulug'bek kutubxonalari, Xuroson poytaxti Hirotda esa Shohrux Mirzo, Boysung'ur Mirzo, Husayn Boyqaro va Navoiy hazratlarining boy kutubxonalari zamonasining eng nodir kutubxonalari edi.

Shuni ta'kidlash joizki, Ulug'bek tomonidan tashkillashtirilgan observatoriya alohida e'tibor va e'tirofga molikdir. Ushbu rasadxona 1424-1429-yillarda Samarqanddagi Obirahmat anhuri bo'yida qurilgan. Ulug'bek Mirzo bu yerda yillar davomida kuzatish va tadqiqot ishlarini olib borgan hamda 1018 ta turg'un yulduzning joylashishi, holatini aniqlagan.

Bu davrda nafaqat aniq fanlar, balki badiiy adabiyot, tarix, musiqa, tasviriy san'at kabi yo'nalishlar ham anchayin yuksaldi. XIV-XVI asrlarda Movarounnahr va Xurosonda Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Kamoliddin Behzod, Xondamir, Sultonali Mashhadiy kabi ijodkor insonlar yashab, ijod qilganlar.

Turkiy til rivojiga ulkan hissa qo'shgan Navoiy hazratlari o'zining insonparvarlik, tinchlik, komillik, mehr-muhabbat g'oyalari asosida yozilgan nodir asarlari orqali xalqning ma'naviy yuksalishi uchun beminnat ko'mak berdilar. **“Xamsa”, “Mahbub ul-qulub”, “Xazoyin ul-maoniy”, “Lison ut-tayr”, “Navodir un-nihoya”** kabi asarlari bunga yorqin misol bo'la oladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, XIV-XVI asrlar yurtimizning bugungi rivoji, zamonaviy sivilizatsiyadagi o'rni beqiyosdir. Bu davrlarda diniy ta'lim, xurofotlar ayni avj olgan palla bo'lsada, dunyoviy fanlarning rivojlanishiga butkul to'siq bo'la olmadi. Ilm-fan markazlari, kutubxonalarning ochilishi xalqni yanada savodxon bo'lishiga qisman bo'lsa-da, zamin yarata

² A. Muhammadjonov. 7-sinf darsligi “O'zbekiston tarixi (IV asrdan XVI asrgacha)”. – Toshkent: “SHARQ” nashriyoti, 2017.

oldi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganidek, **“Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”**. Shunday ekan, olis moziy bizga ko‘p narsalardan saboq beradi va undan to‘g‘ri xulosa chiqarishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I. Karimov. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2008.
2. O. Madayev. “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”. – Toshkent: “MUMTOZ SO‘Z” nashriyoti, 2010.
3. A. Muhammadjonov. 7-sinf darsligi “O‘zbekiston tarixi (IV asrdan XVI asrgacha)”. – Toshkent: “SHARQ” nashriyoti, 2017.
4. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/12037-xiv-asrning-ikkinchi-yarimidan-xvii-asrgacha-tarbiya-maktab-va-pedagogik-fikrlar?ysclid=ll9nbhgsmi381612268>